

“Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadorining
2-sonli qarori

2025 yil “27” fevral

Toshkent shahri

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 84 618 347 341 donani tashkil etadi.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Konuning 58-moddasiga asosan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

Kun tartibi:

1. Jamiyat ustav fondini qo‘shimcha aksiyalar chiqarib joylashtirish orqali ko‘paytirish hamda qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlarini belgilash to‘g‘risida.

2. Jamiyatning qo‘shimcha oddiy aksiyalarini chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlash to‘g‘risida.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.03.2023-yildagi PQ-91-sonli qarorining 2-ilovasi, 03.05.2024-yildagi F-21-sonli farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021-yildagi 382-sonli qarori va 15.08.2023-yildagi 527-F-/10-sonli farmoyishlari asosida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va uning 3 ta hududiy filiallari (avval tizimdagi korxonalar) tomonidan jami 13 ta umumiy qiymati 51 214 410 200,64 so‘mlik aktivlarni 2021-2024-yillar mobaynida tegishli davlat tashkilotlaridan Jamiyat ustav fondidagi davlat ulushini oshirish hisobiga qabul qilib olingan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021-yildagi 382-sonli qaroriga binoan “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning Samarqand magistral elektr tarmoqlari filialidan balans (qoldiq) qiymati 15 190 281 258,32 so‘mlik 1 ta va uning Qoraqalpog‘iston magistral elektr tarmoqlari filialidan balans (qoldiq) qiymati 15 335 157 412,2 so‘mlik 8 ta, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.03.2023-yildagi PQ-91-sonli qarorining 2-ilovasiga binoan “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning Toshkent magistral elektr tarmoqlari filialidan 898 212 771,12 so‘mlik 2 ta, Vazirlar Mahkamasining 15.08.2023-yildagi 527-F-sonli farmoyishiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligidan baholangan qiymati 3 365 585 000,0 so‘mlik 1 ta hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2024-yildagi F-21-sonli farmoyishiga binoan “China

Energy International Group Samarkand Cement” xorijiy korxonasidan haqiqatda qilingan harajatlar va to’lov hujjatlariga asosan balans (qoldiq) qiymatida 16 425 173 759,0 so’mlik 1 ta aktiv qabul qilib olingan.

Ushbulardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining yukorida qayd etilgan farmoyish va qarorlari ijrosini to‘laqonli ta’minlash maqsadida hamda ushbu farmoyish va qarorlar asosida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va uning hududiy filiallari tomonidan jami 13 ta umumiy qiymati 51 214 410 200,64 so’mlik aktivlar davlat tashkilotlari va kompaniyalardan qabul qilib olinganligini inobatga olib ushbu aktivlarning baholangan va umumiy qoldiq balans qiymati summasiga “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ ustav fondidagi davlat ulushini oshirish zarur hisoblanadi.

Shuningdek, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari Yagona aksiyadorining 26.04.2019-yildagi 1-sonli, 29.11.2019-yildagi 7-sonli, 16.09.2022-yildagi 6-sonli, 12.05.2021-yildagi 2-sonli va 24.10.2024-yildagi 9-sonli qarorlari bilan “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ ustav fondidagi davlat ulushi oshirilgan va kamaytirilgan. Ushbu qarorlarda aksiyalarning butligini saqlash maqsadida davlat tashkilotlari hamda kompaniyalardan qabul qilib olingan mulklar va ustav fondining oshirilgan qismi summasi o‘rtasidagi 161,05 so‘m miqdoridagi farq Jamiyatning keyingi aksiyalar chiqarilishida davlat ulushini shakllantirishda hisobga olinishi belgilangan. Aksiyalarning butligini saqlash maqsadida davlat tashkilotlari hamda kompaniyalardan qabul qilib olingan mulklar va ustav fondining oshirilgan qismi summasi o‘rtasidagi 61,69 so‘m miqdoridagi farq Jamiyatning keyingi aksiyalar chiqarilishida davlat ulushini shakllantirishda hisobga olinadi.

Jamiyat ustavining 3.4-bandiga ko‘ra Jamiyat ustavi fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalarga qo‘shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo‘lgan, e‘lon qilingan aksiyalar miqdori - nominal qiymati 100 so‘m bo‘lgan 51 194 389 313 dona oddiy va nominal qiymati 100 so‘m bo‘lgan 44 102 495 dona imtiyozli aksiyalardan iborat.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Jamiyat ustav fondini miqdori nominal qiymati 100,0 so‘m bo‘lgan 512 144 103 dona egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shakldagi qo‘shimcha aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yo‘li bilan 51 214 410 300,0 so‘mga ko‘paytirish taklif etildi.

Mazkur aksiyalarni joylashtirishda imtiyozli huquqlar ko‘zda tutilmasligi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadori, **qaror qiladi:**

1. Jamiyat ustav fondining miqdori nominal qiymati 100,0 so‘m bo‘lgan 512 144 103 dona egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shakldagi qo‘shimcha aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yo‘li bilan 51 214 410 300,0 so‘mga ko‘paytirilsin.

2. Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlari quyidagicha tasdiqlansin:

- **chiqarilayotgan aksiyalar turi** – oddiy aksiyalar;
- **chiqarilayotgan aksiyalar shakli** – hujjatsiz;

- **chiqarilayotgan aksiyalar soni** – 512 144 103 dona;
- **chiqarilayotgan har bir aksiyaning nominal qiymati** – 100,0 so‘m;
- **chiqarilishning umumiy hajmi (nominal qiymati bo‘yicha)** – 51 214 410 300,0 so‘m;

- **aksiyalarni joylashtirish usuli** – Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar emitent aksiyadorlariga qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda aksiyalarni imtiyozli olish huquqini taqdim etish ko‘zda tutilmagan holda (barcha oddiy aksiyalar egasi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari tashkillashtirilmagan (uyushmagan) bozorida yopiq obuna usulida joylashtiriladi.

- **aksiyalarni joylashtirishning muddati** – Emitent aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 2 kun ichida rasmiy ma‘lumotni Emitent veb-saytida va korporativ axborotlarning yagona portalida, o‘rnatilgan tartibda, e‘lon qiladi.

Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi: Aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xabar ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan sana.

Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi: Ushbu chiqarilishdagi eng oxirgi aksiya joylashtirilgan sana, lekin ushbu chiqarilishdagi aksiyalar davlat ro‘yxatiga olingan sanadan boshlab 365 kun ichida joylashtiriladi.

- **Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi** - Mazkur emissiya doirasida chiqarilayotgan naqdsiz shakldagi egasi yozilgan oddiy aksiyalar yopiq obuna qilish orqali uyushmagan birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorida fuqarolik-huquqiy bitimlarni belgilangan tartibda “Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi” AJda ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan joylashtiriladi. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishga anderrayterlarni jalb qilish ko‘zda tutilmagan.

- **Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘z ichiga olgan to‘liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni** - Jamiyat aksiyalariga bo‘lgan huquqlarni hisobini yuritish, “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshiriladi.

Markaziy depozitariy haqida ma‘lumot:

To‘liq nomi: “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyati;

Tashkiliy huquqiy shakli: Aksiyadorlik jamiyati;

Joylashgan joyi - 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoxko‘chasi 107 uy;

Pochta manzili - 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoxko‘chasi 107 uy;

telefon: 8(371) 267-37-42, Faks: 8(371)267-35-92

e-mail: info@uzcs.uz, veb manzili: www.deponet.uz.

Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – Aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xabar qonun xujjatlarida o‘rnatilgan tartib va muddatlarda ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan kundan e‘tiboran joylashtiriladi.

Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – Mazkur chiqarilishning so‘nggi aksiyasi joylashtirilgan sana, biroq davlat ro‘yxatiga olingan sanadan boshlab 365 kundan oshmasligi lozim.

- **ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi** – Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar emitent aksiyadorlariga qonunchilikda o'rnatilgan tartibda aksiyalarni imtiyozli olish huquqini taqdim etish ko'zda tutilmagan holda joylashtiriladi. Barcha oddiy aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga joylashtiriladi.

- **ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish bahosi** – Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 100,0 so'mdan joylashtiriladi.

- **Mazkur aksiyalarni joylashtirishda imtiyozli huquqlar** - Mazkur aksiyalarni joylashtirishda imtiyozli huquqlar ko'zda tutilmaydi.

- **aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi** – Aksiyalar uchun to'lov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021 yildagi 382-sonli qaroriga binoan "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJning Samarqand magistral elektr tarmoqlari filialidan balans (qoldiq) qiymati 15 190 281 258,32 so'mlik 1 ta va uning Qoraqalpog'iston magistral elektr tarmoqlari filialidan balans (qoldiq) qiymati 15 335 157 412,2 so'mlik 8 ta, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.03.2023 yildagi PQ-91-sonli qarorining 2-ilovasiga binoan "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJning Toshkent magistral elektr tarmoqlari filialidan 898 212 771,12 so'mlik 2 ta, Vazirlar Mahkamasining 15.08.2023 yildagi 527-F-sonli farmoyishiga binoan hamda "Diskont-Invest" MChJning 2024-yil 28-fevraldagi 180/1-sonli baholash hisobotiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligidan baholangan qiymati 3 365 585 000,0 so'mlik 1 ta hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2024 yildagi F-21-sonli farmoyishiga binoan "China Energy International Group Samarkand Cement" xorijiy korxonasidan haqiqatda qilingan harajatlar va to'lov hujjatlariga asosan balans (qoldiq) qiymatida 16 425 173 759,0 so'mlik 1 ta jami 13 ta umumiy qiymati 51 214 410 200,64 so'mlik aktivlar bilan amalga oshiriladi. Aktivlar topshirish-qabul qilish dalolatnomalari orqali topshiriladi.

Shuningdek, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari Yagona aksiyadorining 26.04.2019 yildagi 1-sonli, 29.11.2019 yildagi 7-sonli, 16.09.2022 yildagi 6-sonli, 12.05.2021 yildagi 2-sonli va 24.10.2024 yildagi 9-sonli qarorlari bilan "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ ustav fondidagi davlat ulushi oshirilgan va kamaytirilgan. Ushbu qarorlarda aksiyalarning butligini saqlash maqsadida davlat tashkilotlari hamda kompaniyalardan qabul qilib olingan mulklar va ustav fondining oshirilgan qismi summasi o'rtasidagi 161,05 so'm miqdoridagi farq Jamiyatning keyingi aksiyalar chiqarilishida davlat ulushini shakllantirishda hisobga olinishi belgilangan. Ushbu aksiyalar chiqarilishida avvalgi chiqarilishlardagi qabul qilib olingan mulklar va ustav fondining oshirilgan qismi summasi o'rtasidagi farqning 99,36 so'mi olinadi.

Aksiyalarning butligini saqlash maqsadida davlat tashkilotlari hamda kompaniyalardan qabul qilib olingan mulklar va ustav fondining oshirilayotgan qismi summasi o'rtasidagi 61,69 so'm miqdoridagi farq Jamiyatning keyingi aksiyalar chiqarilishida davlat ulushini shakllantirishda hisobga olinadi.

Baholovchilarning to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi:
to'liq firma nomi - "Diskont-Invest" ma'sulyati cheklangan jamiyati;
qisqartirilgan firma nomi - "Diskont-Invest" MChJ;
joylashgan joyi – O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri,
Xamza ko'chasi, 1A uy.

baholovchi tashkilotning professional jamoat birlashmasiga a'zoliqi to'g'risidagi guvohnoma raqami va berilgan sanasi - O'zbekiston Baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamoat birlashmasi tomonidan 2023-yil 4-yanvarda berilgan D0115—raqamli "Sertifikat". Baholovchi Mirzabekov Bahodir Mansurovich 27.07.2019-yildagi 0244-sonli malaka sertifikatiga ega. Baholovchi malaka sertifikatining muddati 08.08.2024-yildan 08.08.2029-yilgacha uzaytirilgan.

- ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning olinishiga nisbatan emitent ustavidagi va/yoki chiqarilish to'g'risidagi karordagi xar qanday cheklashlar – Emitent Ustavida ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga doir cheklov mavjud emas. Aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorda qo'yidagi cheklashlar belgilangan:

- Aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yopiq obuna orqali joylashtiriladi.

- Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topish ulushi – Aksiyalar chiqarilishi umumiy hajmining 60 foizidan kam bo'lmagan qismi joylashtirilishi lozim. Ushbu ulush joylashtirish muddati davomida joylashtirilmagan taqdirda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb hisoblanadi.

- Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi – chiqarilishi amalga oshmagan va haqiqiy emas deb tan olingan taqdirda, Emitent ushbu holat to'g'risida o'rnatilgan tartibda rasmiy ma'lumotni (28-sonli muhim fakt) Emitent veb-saytida va korporativ axborotlarning yagona portalida, o'rnatilgan tartibda, e'lon qiladi. Aksiyalar uchun to'lov sifatida berilgan vositalar aksiyalarning ushbu chiqariluvini vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshmagan deb tan olingan kundan keyin 7 kun ichida belgilangan tartibda qaytarib beriladi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan:

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJning qo'shimcha aksiyalarining chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun jamiyatning qo'shimcha aksiyalar chiqariluvini to'g'risidagi qarorini amaldagi qonunchilikka asosan tasdiqlash lozim. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalar chiqariluvini to'g'risidagi qarori O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi" qonuni hamda Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 30-sentabrda 2000-raqam bilan ro'yhatdan o'tkazilgan "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish" qoidalari talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Kun tartibidagi **ikkinchi masala** yuzasidan “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadori, **qaror qiladi**:

1. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalarini chiqarish to‘g‘risidagi qarori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruv raisi v.b. A.A. Askarovga Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirining
o‘rinbosari

 **X.Mustafaev**